

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Tursunov, A.Ibragimov, U.Ishimov</b>	
Farg'ona vodiysida o'sadigan <i>cistanche mongolica</i> o'simligining poya qismi flavonoidlar tarkibi va miqdorini yuqori samarali suyuq xromatografik usulda aniqlash.....	198
<b>Sh.Turg'unboyev, H.Toshov, A.Xaitbayev</b>	
Gossipolning benzidin bilan yangi shiff asoslari sintezi .....	203
<b>X.Trobov, R.Djurayeva, X.Karimov, Z.Islomova</b>	
Kuchli kislotalar eritmalarida polivinilspirit gelining bo'kishi.....	207
<b>M.Axmadaliyev, I.Sharofiddinov</b>	
Metanning piroлизlashdagi chiqindilarini qaytaishlash omillari.....	212
<b>M.Axmadaliyeva, M.Axmadaliyev</b>	
11-rafinatni parafinsizlantirishda erituvchi tarkibining ta'siri.....	217
<b>U.Yusupaliyev, T.Amirov</b>	
Bitum emulsiyasi qo'shilgan sement bilan ishlov berilgan shag'al-qum qorishmalari bilan asoslarni qurish uslublari .....	222
<b>N.Dexqanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,</b>	
NaX seolitida vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi .....	229
<b>I.Asqarov, X.Isaqov, S.Muhammedov</b>	
Furfurolidenkarbamidning mass-spektroskopik va termik tahlili .....	237
<b>F.Xurramova, S.Zokirov, Sh.Yarmanov, S.Botirov, A.Inxonova</b>	
Tabiiy polimerlarga sun'iy eritmalaridagi Pb () ionlarining sorbsiya kinetikasi .....	240

## BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

<b>I.Zokirov, D.Asqarova, G.Zokirova</b>	
<i>Leptinotarsa decemlineata</i> say, 1824 invaziv turining Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalish xususiyatlari .....	245
<b>N.Abdullayeva, M.Davidov</b>	
Assortimentni kengaytirish va yumshoq pishloq ishlab chiqarishni ko'paytirish istiqbollari .....	250
<b>A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Haydarov</b>	
Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik jihatdan baholash .....	254
<b>R.Jamolov, O.To'rayev, N.Xoshimova</b>	
Farg'ona viloyatida ona asalarini sun'iy usulda urug'lantirishning uning tuxumdonligiga ta'siri.....	258
<b>G.Yuldashev, D.Darmonov, I.Mamajonov</b>	
Minerallashgan suvlар bilan sug'orishdagi tuproqning tuz balansining o'zgarishi .....	262

## ILMIY AXBOROT

<b>A.Bababekov</b>	
Marosim iqtisodiyoti: nikoh to'yi marosimlari misolida (iqtisodiy antropologik tahlil) .....	268
<b>S.Ruziyeva</b>	
O'zbekistonda san'at menejmenti: asosiy yo'nalishlari va rivojlanish strategiyalari .....	274
<b>O.Abobakirova</b>	
Abdulla Avloniy hikoyatlarining badiiy-estetik va ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati .....	278
<b>D.Nasriyeva</b>	
Isajon Sulton asarlarida presedent birliklar lingvomadaniy vosita sifatida.....	283
<b>I.Raufov</b>	
O'zbekistonda neft-gaz tizimi istiqbollari .....	287
<b>N.Jumaniyazova</b>	
O.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarining badiiy tahlili .....	290
<b>E.Nasrullahov</b>	
Navoiyshunos S.Olimov tadqiqotlarida ulug' shoir ma'rifiy talqinlarining tadqiqi.....	293

**SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNI EKOLOGIK JIHATDAN BAHOLASH****ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ОРОШАЕМЫХ ПОЧВ****ENVIRONMENTAL ASSESSMENT OF IRRIGATED SOILS**

**Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich<sup>1</sup>, Asqarov Kamoliddin Abdug'aniyevich<sup>2</sup>, Haydarov Mavljonon Mashrabovich<sup>3</sup>**

<sup>1</sup>Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich

<sup>2</sup>Asqarov Kamoliddin Abdug'aniyevich

<sup>3</sup>Haydarov Mavljonon Mashrabovich

- Farg'onadavlatuniversitetib.f.d., dotsent

- Farg'onadavlatuniversitetib.f.f.d

- Farg'onadavlatuniversitetib.f.f.d.

**Annatatsiya**

*Ushbu maqolada cho'l mintaqasida tarqalgan sug'oriladigan o'tloqi taqir va o'tloqi saz tuproqlarning genetik qatlamlari bo'yicha kimyoviy element tarkibi, og'ir metallar va metalloidlar miqdori, migratsiyasi hamda akkumulyatsiyasi yoritilgan. Shu bilan birga, tuproqlarning og'ir metallar va metalloidlar bilan ifloslanish darajalari, ekologik jihatdan baholash ko'satkichlari keltirilgan bo'lib, Markaziy Farg'ona sug'oriladigan o'tloqi taqirlari va o'tloqi saz tuproqlarini ekologik jihatdan baholangan.*

**Аннотация**

В статье описаны химический элементный состав, количества, миграция и накопление тяжелых металлов и металлоидов в генетических горизонтах орошаемых лугово-такырных и луговых сазовых почв, распространенных в пустынной зоне. При этом приведены уровни загрязнения почв тяжелыми металлами и металлоидами, показатели экологической оценки, а также экологическая оценка орошаемых лугово-такырных и луговых сазовых почв Центральной Ферганы.

**Abstract**

The article describes the chemical elemental composition, quantity, migration and accumulation of heavy metals and metalloids in the genetic horizons of irrigated meadow-takyrs and meadow saz soils common in the desert zone. At the same time, the levels of soil contamination with heavy metals and metalloids, indicators of environmental assessment, as well as environmental assessment of irrigated meadow-takyrs and meadow saz soils of Central Fergana are given.

**Kalit so'zlar:** o'tloqi taqir, o'tloqi saz, gidromorf, og'ir metallar va metalloidlar, radioaktiv elementlar, ekologik baholash.

**Ключевые слова:** лугово-такырный, луговой сазовый, гидроморф, тяжелые металлы и металлоиды, радиоактивные элементы, экологическая оценка.

**Key words:** meadow-takyrs, meadow saz, hydromorph, heavy metals and metalloids, radioactive elements, environmental assessment.

**KIRISH.** Sug'oriladigan tuproqlarda ularning madaniylashganlik darajasini ortib borishi bilan tuproq va uning genetik qatlamlarida kechadigan kimyoviy, biologik, geokimyoviy va boshqa jarayonlar ma'lum darajada jadallahadi, bu jarayonlar kimyoviy elementlarning migratsiyasida hamda akkumulyatsiyasida o'ziga xos vazifani bajaradi. cho'l mintaqalarida keng tarqalgan, meliorativ holati yomon, unumdoorligi past bo'lgan gidromorf tuproqlarni tadqiq qilish va shu orqali qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hamda sifatli hosil olish, ekologik holatini aniqlash, unumdoorligini orshirish chora-tadbirlarini ilmiy asosda ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Og'ir metallar – eng ko'p tarqalgan iflosantiruvchi moddalardir. Ular bilan ayniqsa uzoq sanoat tarixiga ega bo'lgan eski shaharlar tuproqlari kuchli darajada ifloslangan. Og'ir metallar, havo bilan tarqalib, metallurgiya zavodlari, ko'mir yoquvchi issiqlik elektr stansiyalari va boshqalar atrofida katta masofaga taqsimlanadi hamda ularga yaqin bo'lgan qishloq xo'jalik yerlariga tushadi. Og'ir metallar qishloq xo'jalik yerlariga asosan organik va mineral o'g'itlar, meliorantlar va o'simliklarni himoya qilish vositalaridan ham tushadi.

Markaziy Farg'ona gidromorf tuproqlarini morfologik belgilari, agronomik, meliorativ va boshqa xususiyatlari qator olimlar tomonidan o'rganilgan [1, 2, 3]. Cho'l mintaqasidagi sug'oriladigan tuproqlarda elementlarning akkumulyatsiyasi asosan tuproq va tuproq hosil qiluvchi jinslarning xossa va xususiyatlari hamda o'simlik qoplami va uning xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi [4, 5, 6]. Og'ir metallar, kamyob elementlar, lantanoidlar, radioaktiv moddalar tuproqni turli qatlamlarida elementning qator xossalari, tuproqni bir qator xususiyatlariga bog'liq ravishda har xil chuqurliklarda akkumulyatsiyalanadi yoki migratsiyalanib, hatto tuproq qoplamidan chiqib ketishi mumkin [7, 8, 9]. Bunday ma'lumotlar bir guruh elementlar uchun (La, Ce, Nd, Sm, Eu, Tb, Yb, Lu, Th, U) ko'p emas, hatto ular uchun ko'pchilik

## BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

tuproqlardagi fon miqdori ham aniqlanmagan, lekin bu holat tuproq hosil bo'llishini hozirgi jarayonlarini tushuntirishda katta nazariy, joiz bo'sa amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Uslublar va materiallar.** Tuproq namunalarining kimyoviy tahlilini aniqlashda umum qabul qilingan O'zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SoyuzNIXI, 1973) uslubiyatidan hamda "Rukovodstvo po ximicheskому analizu pochv" [10] usul va uslubiyatlaridan foydalanildi.

Tuproqni, ya'ni cho'l mintaqasining asosiy tuproqlari hisoblangan sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarining asosiy genetik qatlamlarida makro- va mikroelementlar, kamyob elementlar, lantanoidlarni yalpi miqdorini aniqladik va ularni atom tartib raqami, og'irligi, ion radiuslarini hisobga olgan holda guruhlarga ajratib joylashtirdik. Har xil genetik qatlamlardagi miqdorlarni geokimyo, biogeokimyoda keng qo'llaniladigan maxsus koeffitsiyentlar: konsentratsiya klarki, klark taqsimoti, radial differensiatsiya koeffitsiyentlari kabi Glazovskaya, Dobrovolskiy, Kabata-Pendias, Pendias, Perelmanlar tomonidan kiritilgan ko'rsatkichlar asosida solishtirib o'rganib chiqdik. Bu hisob-kitoblarda Vinogradov klarkidan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Biologik ta'sir darajasiga baho berish uchun berilgan og'ir metall va metalloidni xavflilik darajasini bilish zarur bo'ladi. Rossiyaning GOST 17.4.1.02-83 ga ko'ra, ifloslanishni nazorat qilish og'ir metallar va metalloidlarni xavfliligiga qarab 3 sinfga bo'lingan: kuchli-, o'rtacha va kam xavfli (1-jadval).

1-jadval

GOST 17.4.1.02-83 bo'yicha og'ir metallar va metalloidlarning xavflilik darjasini (Bolshakov va boshqalar, 1999 yil).

Xavflilik darjasini	Elementlar
Yuqori	As, Cd, Hg, Se, Pb, Zn
O'rtacha	Co, Ni, Mo, Cu, Cr (?), Sb
Kam	Ba, V, W, Mn, Sr
Noma'lum	Ge, Sn, Ce, La, Bi, Y, Rb, Cs va boshqalar

Rossiyaning GOST 17.4.1.02-83 ga va O'zbekiston TAITI olimlari X.T.Risqiyeva va boshqalar [11] ma'lumotlariga ko'ra, og'ir metallar va metalloidlarning hammasi ham xavfliliği bo'yicha klassifikatsiyalanmagan, germaniy, qalay, seziy, lantan, seriylar, vismut va bir qator boshqalarning xavfsizlik darjasini noma'lumligicha qolmoqda.

"Tuproqlarning umumiylifloslanishi" deb qabul qilingan atamani ham shu shart bilan qabul qilinishi kerakki, bunda ifloslanishning boshqa turlari, masalan, organik pollyutantlar yoki radionuklidlar hisobga olinmaydi. Odatda tuproqning yuqori qatlamida o'nashib qoladigan og'ir metallar va metalloidlar bilan aeral ifloslanishi o'rganib chiqiladi.

2-jadval

Tuproqlarni umumiylifloslanish darajalari, Zc [12]

Tuproqlarni ifloslanish darajalari	Umumiylifloslanish ko'rsatkichlari
Ruxsat etilgan	1-8
Kuchsiz	8-16
O'rtacha	16-32
Kuchli	32-64
Juda kuchli	64-128

Tuproq tarkibidagi kimyoviy elementlar tuproq qatlamlarida, atrof-muhitda migratsiyalanadi, aksariyat hollarda tuproqni u yoki bu genetik qatlamlarida to'planadi.

Yerlarning agroekologik holati lantan guruhiya kiruvchi elementlarning landshaft bloklarida xususan, tuproqlarda tarqalishi va boshqa omillar bilan birga ularning miqdorlariga ham bog'liq bo'ladi.

Markaziy Farg'onaning sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarining genetik qatlamlaridagi La, Ce, Nd, Sm, Eu, Yb, Tb, Lu, Th, U kabi elementlar miqdori ma'lumotlariga ko'ra, sug'orilganlik darjasini bir xil bo'limgan o'tloqi tuproqlarning haydov qatlamidan ona jinslarigacha bo'lgan gorizontlarida ularning miqdori ko'rsatkichlarida o'zaro farqlar mavjud.

Jumladan, lantan elementi o'rganilgan tuproqlarning haydov qatlamlarida  $15,0 \cdot 10^{-4} \%$  -  $32,7 \cdot 10^{-4} \%$  gacha tebranadi. Umumiyl profillar bo'yicha oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichni minimal miqdori, ya'ni  $13,9 \cdot 10^{-4} \%$  20A kesmaning 62-90 sm. ga to'g'ri kelsa uning maksimal miqdori  $32,7 \cdot 10^{-4} \%$  20A kesmaning 0-30 sm. ga to'g'ri keladi. Bu kabi qonuniyatlarni boshqa elementlarda ham kuzatish mumkin.

Yalpi ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori miqdor seriy elementiga to'g'ri keladi. Bu elementni tuproq qatlamlarida umumiyl holatda o'ttacha  $41,4 \cdot 10^{-4} \%$  -  $45,9 \cdot 10^{-4} \%$  gacha miqdorlarda bo'lishi kuzatildi.

Neodim miqdori ham kam emas, ya'ni sug'oriladigan o'tloqi-taqirli tuproqlarda o'ttacha  $18 \cdot 10^{-4} \%$ , sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlarda esa  $16,8 \cdot 10^{-4} \%$  bo'lishi ma'lum bo'ldi. Lantanoidlarga kiruvchi qolgan elementlarning miqdorlari samariydan lyutetsiygacha  $0,11 \cdot 10^{-4} \%$  -  $4,5 \cdot 10^{-4} \%$  gacha bo'ligan oraliqlarda joylashadi. Toriy kabi tabiiy radioaktiv elementlarning miqdoriy ko'rsatkichlari ham tadqiqotga tortilgan tuproqlarda ko'p emas, ya'ni  $4,8 \cdot 10^{-4} \%$  dan  $16,3 \cdot 10^{-4} \%$  gacha tebranadi.

Uran esa umumiyl holatda litosfera klarkidan ko'p miqdorda ekanligi ma'lum bo'ldi. Uning miqdori yangidan sug'oriladigan o'tloqi-taqirli tuproqlarda boshqa tuproq qatlamlariga nisbatan eng ko'p miqdorlarni tashkil qildi va 24A-kesmaning 75-92 sm qatlamida  $11,2 \cdot 10^{-4} \%$  ni ko'rsatkichga ega. Olingen ma'lumotlardan eng yuqori miqdorlar deyarli barcha qatlamlarda Ce elementiga eng kam ko'rsatkich esa Lu ga to'g'ri keladi.

Tahlil natijalaridan olingen raqamli ma'lumotlarga asosan sug'oriladigan o'tloqi-taqirli va o'tloqi saz tuproqlar uchun o'rganilgan elementlarning fon miqdorlari ishlab chiqildi hamda geokimyoviy spektrlar ko'rinishida ifodalandi.

O'tloqi-taqirli tuproqlar uchun lantanoid va radionuklidlarning fon miqdorlari,  $10^{-4} \%$ :

$$\frac{Ce}{45,9} > \frac{La}{26,0} > \frac{Nd}{18,0} > \frac{Th}{8,3} > \frac{U}{5,6} > \frac{Sm}{2,8} > \frac{Yb}{1,49} > \frac{Eu}{0,68} > \frac{Tb}{0,43} > \frac{Lu}{0,15}$$

O'tloqi saz tuproqlar uchun lantanoid va radionuklidlarning fon miqdorlari,  $10^{-4} \%$ :


$$\frac{Ce}{41,4} > \frac{La}{23,2} > \frac{Nd}{16,8} > \frac{Th}{7,61} > \frac{U}{4,5} > \frac{Sm}{2,9} > \frac{Yb}{1,6} > \frac{Eu}{0,70} > \frac{Tb}{0,45} > \frac{Lu}{0,16}$$

### 3-jadval

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarni ekologik jihatdan baholash

Elementlar nomi	REM umumiyl miqdori, mg/kg	Sug'oriladigan o'tloqi-taqirli tuproqlar		Sug'oriladigan o'tloqi saz tuproqlar	
		miqdori, mg/kg	Ekologik xavflilik darajasi	miqdori, mg/kg	Ekologik xavflilik darajasi
Surma	4,5	1,48	0,33	1,29	0,29
Nikel	20	30,5	1,53	68,1	3,41
Mishyak	2	11,75	5,88	10,07	5,04
Kobalt	5	7,42	1,48	7,84	1,57
Rux	55	67,8	1,23	70,0	1,27

O'rganilgan tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlarning aniqlangan miqdorlariga oid olingen laboratoriya tahlillari natijalari elementlarning ruxsat etilgan meyorlariga (REM) hamda xavflilik darajalariga ko'ra qayta ishlandi va tadqiq etilgan sug'oriladigan o'tloqi-taqirli, o'tloqi saz tuproqlarni ekologik jihatdan baholandi va quyidagi jadvalda keltirildi (3-jadval, 1-rasm).



### 1-rasm. Sug'oriladigan tuproqlarni ekologik xavflilik darajasi

Jadval ma'lumotlari asosida shuni qayd etish mumkinki, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar nikel, mishyak, kobalt va rux elementlari miqdorlariga ko'ra ekologik jihatdan xavflilik darajalari aniqlandi.

Tuproqlarni ekologik jihatdan baholash

Tuproqlarni ifloslanish darajalari	Umumiylifloslanish ko'rsatkichlari	Ekologik xavflilik darajasi					Rangi
		Sb	Zn	Co	Ni	As	
Ruxsat etilgan	1-8	0,33	1,23	1,48	1,53	5,88	Sarg'ish
Kuchsiz	8-16	-	-	-	-	-	Och sariq
O'rtacha	16-32	-	-	-	-	-	Sariq
Kuchli	32-64	-	-	-	-	-	To'q sariq
Juda kuchli	64-128	-	-	-	-	-	Yashil

Bunda ekologik xavflilik darajasi sug'oriladigan o'tloqi-taqirli tuproqlarda eng yuqori ko'rsatkich mishyak bo'yicha bo'lib, 5,88 ga to'g'ri keladi, undan keyin nikel (1,53), kobalt (1,48) va rux (1,23) tartibida kamayib boradi.

Ekologik xavflilik darajasi o'tloqi saz tuproqlarda ham eng yuqori ko'rsatkich mishyak bo'yicha bo'lib, 5,04 ga to'g'ri keladi, undan keyin nikel (3,41), kobalt (1,57) va rux (1,27) tartibida kamayib boradi. Surma elementi bo'yicha esa har ikkala tuproqlar ham ekologik xavfsiz guruhga kiradi, ya'ni ularning ko'rsatkichlari mos ravishda 0,33 va 0,29 ga teng.

**Xulosa.** Umumiyl xulosa qiladigan bo'lsak, tadqiq etilgan sug'oriladigan o'tloqi taqirli, o'tloqi saz tuproqlar ekologik jihatdan havfsiz guruhga kiradi. Tuproq qoplamini doimiy ravishda nazoratga olish, ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ular natijasida tuproqlarni unumdarligini oshirish, lantanoidlar, og'ir metallar va metalloidlar bilan ifloslanishlarning oldini olish bo'yicha bir qator agroekologik, agromeliorativ chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish hisobiga qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishga erishiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Беседин П.Н., Шадманов К.Ш., Юлдашев Г.Ю. Почвенный покров опытного участка СоюзНИХИ в совхозе "Правда": Сб.науч.тр.приемы освоения эродированных почв Центральной Ферганы. Т., 1979. 15-35 с.
- Isaqov V.Y., Mirzayev U. Markaziy Farg'onada shakllangan arziqli tuproqlarning xossalari va ularning inson omili ta'sirida o'zgarishi. Toshkent 2009. 227 b.
- Isaqov V.Y., Yusupova M.A. Farg'ona vodiysi qum dahalariga inson omilining ta'siri // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. –Т. №9. S 60-67.
- Askarov K.A, Musayev I.I, Turdaliev A.T, Eshpulatov Sh.Ya. (2020) Geochemical barriers in irrigated soils and the impact of them on plants. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, Vol. 7, Issue 3. pp. 3082-3089.
- Турдалиев А.Т., Аскаров К.А., Мирзаев Ф.А.У. Морфологические особенности орошаемых почв Центральной Ферганы //Почвы и окружающая среда. – 2019. – Т. 2. – №. 3.
- Turdaliyev A.T., Asqarov K.A., Xodjibolayeva N.M. Sug'oriladigan gidromorf tuproqlardan samarali foydalanish // Scientific Bulletin of Namangan State University. –Т. –2021. №7. С. 140-145.
- Turdaliyev A., Asqarov K., Xodjibolayeva N. Geoenergetic features of lanthanoids and radioactive elements in irrigated soils // Scientific journal of the Fergana State University. – 2019. – Т. 2. – №. 4. – С. 53-57.
- Хайдаров М.М. Основы применения гуминовых веществ в светлых сероземах //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 8. – С. 87-93.
- Хайдаров М.М., Турдалиев А.Т., Саминов А.А.У. Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах // Тенденции развития науки и образования. – 2021. – № 80-3. – С. 45-47. – DOI 10.18411/trnio-12-2021-121.
- Аринушкина Е.В. Руководство по химическому анализу почв. - М., 1961, -490 с.
- Мотузова Г.В., Безуглова О.С. Экологический мониторинг почв. – Москва, 2007. 127-131 б.
- Рискиева Х.Т., Каримов Х.Н. Токсикологическое состояние и экологические функции почв орошаемых ландшафтов // Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2016. – С. 371-381.